

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi o'z ishini boshladi


// 27.05.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-yosh-mutaxassislari-ilmiy-intellektual-forumi->



Bugun "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi o'z ishini boshladi

Mazkur forumda "Maxam-Chirchiq" AJ, "Navoiyazot" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QK, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ, "Ammofos-Maxam" AJ, "Farg'onaaazot" AJ, "Birinchi rezinotexnika zavodi" MChJ XKlarda faoliyat yuritayotgan yosh kimyogar mutaxassislari, shuningdek, D.I.Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Yangi O'zbekiston universiteti talabalari - jami 200 nafar yoshlar ishtirok etishmoqda.



Dastlab ishtirokchilar D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialiga tashrif buyurishdi. Ilm dargohida sohaning bo'lajak mutaxassislari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishildi.



Shuningdek, ishtirokchilar Chirchiq kimyo-industrial texnoparkiga ham ekskursiya tashkil etildi. Texnoparkda ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishdi. Yosh mutaxassislar o'zlarini qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar olishdi.



Forumning asosiy tadbirlari "Kimyogar" sog'lomlashtirish oromgohida bo'lib o'tadi.





"O'zbekimiyosanoat" AJ Matbuot xizmati